

SOLIQLARDAN BO'YIN TOVLASHGA QARSHI KURASHISH MEXANIZMLARINI TASHKIL ETISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI (FRANSIYA MISOLIDA)

Oymatova Gulinur

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-9631-143X

1989gulinur1989@gmail.com

i.f.d., prof. Kuziyeva Nargiza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-8096-2928

nargizaramazanovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Fransiya misolida soliqdan bo'yin tovlashga qarshi kurash mexanizmlarini tashkil etishda ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda Fransiya soliq nazorat tizimining asosiy jihatlari, jumladan raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik, riskka asoslangan yondashuv va javobgarlik choralari ko'rib chiqiladi. Fiskal siyosat samaradorligini oshirish maqsadida ushbu tajribani milliy soliq tizimlariga tatbiq etish istiqbollari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: soliq nazorati, soliqdan bo'yin tovlash, Fransiya, xorijiy tajriba, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik, riskka asoslangan yondashuv, soliq jinoyatlari.

АНАЛИЗ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ОРГАНИЗАЦИИ МЕХАНИЗМОВ БОРЬБЫ С УКЛОНЕНИЕМ ОТ УПЛАТЫ НАЛОГОВ (НА ПРИМЕРЕ ФРАНЦИИ)

Ойматова Гулинур

Гулистанский государственный университет

д.э.н., проф. Кузиева Наргиза

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Статья посвящена анализу передового зарубежного опыта организации механизмов борьбы с уклонением от уплаты налогов на примере Франции. В ней рассматриваются основные аспекты французской системы налогового контроля, в том числе цифровизация, международное сотрудничество, риск-ориентированный подход и меры подотчетности. Изучаются перспективы применения данного опыта в национальных налоговых системах в целях повышения эффективности фискальной политики.

Ключевые слова: налоговый контроль, уклонение от уплаты налогов, Франция, зарубежный опыт, цифровизация, международное сотрудничество, риск-ориентированный подход, налоговые преступления.

ANALYSIS OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING MECHANISMS TO COMBAT TAX EVASION (ON THE EXAMPLE OF FRANCE)

Oymatova Gulnur

Gulistan State University

DSc, prof. Kuziyeva Nargiza

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article is devoted to the analysis of advanced foreign experience in organizing mechanisms to combat tax evasion on the example of France. It examines the main aspects of the French tax control system, including digitalization, international cooperation, risk-based approach and accountability measures. The prospects for applying this experience to national tax systems in order to increase the effectiveness of fiscal policy are studied.*

Keywords: *tax control, tax evasion, France, foreign experience, digitalization, international cooperation, risk-based approach, tax crimes.*

Kirish.

Soliqdan bo'yin tovlash zamonaviy fiskal siyosatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, iqtisodiy barqarorlikka, ijtimoiy adolatga va davlat institutlariga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi. Har yili soliqdan qochish sxemalari yanada murakkablashib bormoqda, jahon iqtisodiyotining globallasuvi va raqamlashtirilishi sharoitida ular transmilliy tus olmoqda. Bu esa, o'z navbatida, soliq organlaridan kurash usullarini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish alohida dolzarblik kasb etadi. Ko'plab davlatlar soliqdan bo'yin tovlashga qarshi kurashda, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va yuqori texnologiyali yechimlarni joriy etishda katta tajriba to'plagan. Ularning amaliyotini tahlil qilish turli milliy sharoitlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng samarali strategiya va vositalarni aniqlash imkonini beradi.

Yevropa Ittifoqining yirik iqtisodiyotlaridan biri bo'lgan Fransiya rivojlangan va samarali soliq ma'muriyoti hamda nazorat tizimiga ega mamlakatning yorqin namunasidir. Ushbu tizim o'nlab yillar davomida shakllanib, jahon iqtisodiyotidagi yangi chaqiriqlar va o'zgarishlarga doimiy ravishda moslashib kelmoqda. Fransiyaning soliqdan bo'yin tovlashga qarshi kurash tajribasi an'anaviy usullarni ham, ilg'or raqamli texnologiyalarni ham, shuningdek faol xalqaro hamkorlikni ham o'z ichiga oladi.

Shu sababli, Fransiya tajribasi soliqdan bo'yin tovlashga qarshi kurash mexanizmlarini mustahkamlashga intilayotgan boshqa davlatlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Uning strategiyalarini, qonunchilik bazasini va amaliy vositalarini o'rganish butun dunyo bo'ylab yanada samarali va adolatli fiskal siyosatni shakllantirish uchun qimmatli bilim manbai bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Fransiyaning soliq jinoyatlariga qarshi kurashdagi tajribasi mahalliy va xorijlik olimlar uchun doim qiziq bo'lib kelgan bo'lib, buni o'tkazilgan tadqiqotlar va nashr etilgan manbalardan ham ko'rinish mumkin. Xususan soliq qonunchiligiga rioya qilish muammosi doimiy ravishda tadqiqotlar doirasida bo'lib kelgan.

Shamsutdinov va Shamsutdinovalar (2011) o'zlarining "Chet mamlakatlar soliq tizimi darsligi"da Fransiya soliq nazorati tizimi haqida "Fransiyaning soliq nazorati tizimi o'ziga xos xususiyatlariga ega. Xususan, bizda uchramaydigan alohida axborot yig'ish markazlari, maxsus brigadalar va h.k.. Ularning ayrim uslublarini bizda qo'llash foydadan xolis emas deb hisoblaymiz. Fransiyada o'zining tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib, o'ziga

xos, boshqa mamlakatlardan ko'p farq qiladigan soliq tizimi mavjudligiga shubha yo'q" deb ta'kidlashadi.

Shuningdek, iqtisod fanlari doktori Kuziyeva (2003) ham o'z tadqiqotlarida xorijiy mamlakatlar soliq tizimi qatorida Fransiya soliq tizimini alohida o'rganib chiqqan.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan Kuznetsov (2017) Fransiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, iqtisodiyotning ijtimoiy xarakteri, soliqlar va yig'imlar turlari, undirish yondashuvlari, daromad solig'ining muhim roli, imtiyozlar va chegirmalar tizimi, xalqaro soliq bitimlariga integratsiyalashuvning rivojlangan institutsional mexanizmlarini o'rgangan.

Zotikov (2020) esa Fransiya soliq tizimini eng murakkab deb ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra mamlakatdagi soliqlar dunyodagi eng yuqori soliqlardan biri bo'lib, bu Yevropa Ittifoqida umumiy soliq yuki bo'yicha 4-o'rinni egallashi bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, Fransiya soliq tizimi daromadlarni qayta taqsimlash orqali aholining yuqori turmush darajasini ta'minlaydi.

Semyonova (2010) xorijiy mamlakatlardagi, jumladan, Fransiya soliq huquqbuzarliklari uchun javobgarlikka tortish tajribasini ko'rib chiqadi. U qonunchilikning soliq huquqbuzarliklari uchun javobgarlik bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi. Butuzova va Koroleva (2017) ham soliq huquqbuzarliklari uchun javobgarlikni tahlil qiladi.

Drojina (n.d.) Fransiya soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashning huquqiy tomonini chuqur o'rganadi. Muallif soliq huquqbuzarliklari uchun qonuniy belgilangan javobgarlik turlarini emas, balki unga hissa qo'shadigan soliq to'lovlarini kamaytirish usullarini va soliq nazorati turlarini ham ko'rib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Maqolada qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, tarixiy tahlil, statistik tahlil va umumlashtirish usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Fransiya soliq nazoratining muhim jihati shundaki, mamlakat byudjetining 90-95%ini soliqlar va yig'imlar tashkil qilib, soliq tushumlarining kamayishi byudjetni muammoli ahvolga solib qo'yishi mumkin (Kuzieva, 2005). Samarali soliq nazorati so'ngi 20 yillik tendensiyaga nazar soladigan bo'lsak butun dunyoda o'z ta'sirini namoyon etgan moliyaviy inqiroz va epidemiya davridan boshqa yillarda soliq tushumlaridagi barqaror o'sishni ta'minlay olgan deyishimiz mumkin (1-rasm).

Fransiya soliq nazorati tizimi kompleks yondashuv bilan ajralib turadi, u qat'iy qarshi choralar bilan yuqori texnologiyali yechimlar va faol xalqaro hamkorlikni o'zida mujassam etadi. Tizimda asosiy o'rinni Iqtisodiyot, moliya hamda sanoat va raqamli suverenitet vazirligi tuzilmasiga kiruvchi Davlat moliya Bosh boshqarmasi (Direction générale des Finances publiques - DGFIP) egallaydi.

Fransiya soliq nazorati tizimining asosiy jihatlaridan biri shundan iboratki, unda qonunchilik bazasi kompleks ishlab chiqilgan. Soliq nazorati Kengashning Umumiy soliq kodeksi (Code général des impôts - CGI) va Soliq protseduralari kitobi (Livre des procédures fiscales - LPF) kabi keng qamrovli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar tekshiruvlar o'tkazishda tomonlarning huquq va majburiyatlarini batafsil belgilaydi. Bundan tashqari nazorat tizimi aniq iyerarxiya va ixtisoslashuvga ega. DGFIP mintaqaviy va mahalliy bo'linmalarga, shuningdek yirik soliq to'lovchilar, xalqaro operatsiyalar va soliq firibgarligining ayniqsa murakkab holatlari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan xizmatlarga ega tarmoqlangan tuzilmaga ega. Shuningdek profilaktik choralarga kuchli e'tibor qaratiladi. Fransiya jazo choralaridan tashqari, axborot ishlari, ommaviy tushuntirishlar va soliq to'lovchilar uchun maslahatlarning mavjudligi orqali soliq qonunbuzarliklarining oldini olishni faol rivojlantirmoqda.



1-rasm. Fransiyaning 2004-yildan 2024-yilgacha bo'lgan sof soliq tushumlari (milliard yevroda) Soliqli daromadlarning dinamikasi yillar kesimida (ccomptes.fr, 2025)

Soliqlarni to'lashda noinsoflik yoki xatolarni aniqlash uchun banklar, bojxona, politsiya va notariuslardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinishi mumkin. Bundan tashqari, hisobot davridagi hisobga olingan xarajatlar summaları asosida real daromadlarni aniqlashning bilvosita usullaridan foydalanish tizimi tashkil etilgan.

Agar buzilishlar yoki noaniqliklar aniqlansa, quyidagilar qo'llanilishi mumkin:

➤ jarima: qarz mavjud bo'lgan har bir oy uchun majburiyatlarning to'lanmagan summasining 0,75 foizi va agar to'lovchi deklaratsiyani kechiktirsa, e'lon qilingan summaning 10-40 foizi;

➤ bank hisobvaraqlaridagi mol-mulk va pul mablag'larini xatlash;

➤ haydovchilik guvohnomasidan 3 yilgacha mahrum qilish;

➤ katta miqdordagi yashirish faktlari aniqlanganda 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 250 000 yevrogacha jarima.

2019-yil 1-iyulda soliq qonunbuzarliklariga qarshi kurashish uchun soliq politsiyasi tashkil etilgan. U soliq to'lashdan bo'yin tovlash faktlarini aniqlash bo'yicha huquqiy tekshiruvlar o'tkazish va ushbu faktlar uchun aybdorlarni sudlash vakolatiga ega bo'lgan soliq agentlaridan iborat.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlagan taqdirda soliq organlari "Intérêt de retard" deb nomlangan jarimani (peniya) qo'llaydilar, uning stavkasi har oyda (2018-yil 1-yanvardan) amalda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasining 0,20 foizini tashkil etadi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash haqiqatda to'lanishi kerak bo'lganidan kamroq soliq to'lanishiga olib kelganda kechiktirilgan to'lov foizlari to'lanadi (economie.gouv.fr, n.d.).

Jarimalarning miqdori soliq to'lovchining vijdonan harakat qilganligiga qarab o'zgaradi.

Shunday qilib, ushbu soliq jazosi quyidagicha bo'lishi mumkin:

➤ Agar soliq to'lovchi insofli bo'lsa va xatolik sabab bo'lgan bo'lsa, amalda to'lanishi kerak bo'lgan soliqning 10%;


➤ Agar soliq to'lovchi qasddan harakat qilgan bo'lsa, amalda to'lanishi kerak bo'lgan soliqning 40%;

➤ Agar soliq to'lovchi deklaratsiya qilinmagan ish yoki noqonuniy faoliyat bilan shug'ullansa, amalda to'lanishi kerak bo'lgan soliqning 80%.

- Tekshirishga e'tiroz bildirilgan taqdirda 100%.

Soliq to'lovchilarda xato qilish huquqi ham bor. Xato qilish huquqi – bu har bir fuqaroning o'z holatiga nisbatan qo'llaniladigan qoidani bilmaslik tufayli xato qilish imkoniyati, birinchi qoidabuzarlik uchun moliyaviy jazo xavfisiz (2018-yil 10-avgustdagi 2018-727-sonli qonun). Bu huquq jismoniy shaxslarga ham, kompaniyalarga ham tegishli.

Amalda, agar deklarant vijdonan xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, u o'z-o'zidan tuzatish kiritisa yoki ma'muriyat uni taklif qilganidan keyin talab qilingan vaqt ichida jazolanmaydi.



2-rasm. 2015-yildan 2023-yilgacha bo'lgan oraliqda soliq tekshiruvlari natijalari (milliard yevroda) Soliq nazorati natijasida aniqlagan va haqiqatda undirilgan soliq majburiyatlari va jarimalar (assemblee-nationale.fr)

Mazkur diagrammadagi moviy chiziq (Total droits nets notifiés (ou mis en recouvrement à partir de 2019) et des pénalités (y compris intérêts de retard) soliq organlari nazorat natijasida soliq to'lovchilarga undirish uchun aniqlagan va taqdim etgan sof majburiyatlar (yoki 2019-yildan boshlab undiruvga qaratilgan) va jarimalar (shu jumladan kechiktirilgan foizlar) ning umumiy summasini ko'rsatadi. Qizil chiziq esa (Montant total des encaissements) haqiqatda undirilgan (kelib tushgan) mablag'larning umumiy summasini ifodalaydi. U aniqlangan summalarining byudjetga haqiqatda tushgan qismidir. 2015-yildan 2020-yilgacha aniqlangan summalar hajmida pasayish kuzatilgan, bu nazorat strategiyalarining o'zgarishi, qonunchilikning o'zgarishi yoki 2020-yilda COVID-19 ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2020-yildan boshlab aniqlangan summalar barqaror o'sishini ko'rsatmoqda, bu soliq nazoratining faollashuvi va/yoki samaradorligining oshganligini (ehtimol, raqamlashtirish va riskka asoslangan yondashuv hisobiga) bildiradi. (2-rasm)

2021-yil 13-yanvardagi 2021-25-son qaror bilan Soliq qoidalarini to'g'ri qo'llashni ta'minlash va shu tariqa soliq masalalarida ularning xavfsizligini oshirish imkonini beruvchi Soliq qoninchiligiga rioya qilish tekshiruvi (ECF) yaratilgan (economie.gouv.fr, n.d.).

Fransiyada soliq markazlari bank ma'lumotlar bazalari to'g'risida ma'lumotlarga ega: ular har bir hisobvaraqa ochilishi, har bir yirik pul o'tkazmasi haqida ma'lumot kelib tushadi, bu rasmiy ravishda soliq to'lovchining o'zi tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyani qo'shimcha tekshirish uchun sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, soliq markazlari yer solig'i, uy-joy solig'i bo'yicha alohida ma'lumotlar bazalaridan, shuningdek, poyga otlari, yaxtalar va samolyotlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar bazalaridan foydalanadi.

Soliq markazlarida avtomobil, ko'chmas mulk sotib olish, hatto soliq to'lovchi ishga kirishda to'ldiriladigan deklaratsiya haqida ham ma'lumotlar mavjud. Soliq organlari bojxona,

politsiya va "France Telecom", "Electricité de France" va "Engie" – (yirik gaz va energetika kompaniyasi) kabi kompaniyalar bilan faol hamkorlik qiladi va axborot almashadi. Ushbu ma'lumotlar hajmi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan daromadlar to'g'risidagi hisobotning to'g'riligini istalgan vaqtda, ish joyidan chiqmasdan tekshirish imkonini beradi, hozirda, masalan, Parij, Lill va Marselda soliq departamentidan yashirincha bank hisobvaraqlari ochish imkonsiz. Birlamchi axborotni qayta ishlash kompyuterlashtirilgan: har bir deklaratsiya kompyuterda sinchkovlik bilan tekshiriladi. Har qanday narsa inspektorning e'tiborini jalb qilishi mumkin: hatto bola parvarishi xarajatlarining tushunarsiz o'sishi ham. Shubhali ma'lumotnoma yana kompyuterga "yuklanadi", maxsus dastur yordamida tekshiriladi va ekranda soliq to'lovchining moliyaviy ahvoliga oid barcha ma'lumotlar, shu jumladan joriy daromad, ish beruvchining manzili va oxirgi uch yildagi oilaviy ahvoli ko'rinadi.

Agar bu yetarli bo'lmasa, soliq to'lovchining oxirgi manzillarini tekshiradigan boshqa dastur faollashtiriladi. Uchinchi dastur amalga oshirilgan bitimning narxi qanchalik ishonchli ekanligini baholash uchun uning ko'chmas mulki, oldi-sotdi dalolatnomari, hadyalar va boshqa dalolatnomalari haqida ma'lumot beradi. Agar narx e'lon qilingan daromadga to'g'ri kelmasa tekshirish boshlanadi. Milliy soliq tekshiruvlari boshqarmasining maxsus bo'limi har kuni matbuotni qayta ishlaydi: xaridlar va sotish, ishga yollash to'g'risidagi e'lonlar bo'limlariga, shuningdek, boylar hayotiga alohida e'tibor beriladi. Boshqa bo'limlar – jami 1300 kishigacha – bevosita politsiya, shahar hokimiyatlari, banklar, restoranlar va hatto avtomobil sotish joylaridagi aloqalari yordamida joylarda ma'lumot to'playdi. Aynan shu bo'limlar ko'pincha yashirin iqtisodiyotdagi jinoyatlar izini topishadi. Soliq inspektorlari norasmiy ma'lumot manbalaridan, xususan anonim xatlardan, qo'shnilarning ko'rsatmalaridan va ma'lumot beruvchilardan foydalanadilar. Soliq ma'muriyati qarzdordan jarimalar bilan birga qarzdorlik summasini undirib olgandan keyin ma'lumot beruvchilarni rasman mukofotlaydi.

Inspektorlarning o'zlari faqat maosh uchun ishlaydi – ular davlat g'aznasiga jamg'argan mablag'lari hisobidan bonus olmaydilar. So'nggi yillardagi yangilik nafaqat soliq idoralari va politsiya o'rtasida axborot almashinuvi, balki birgalikdagi operatsiyalar ham bo'ldi. Ham militsioner, ham soliq idorasi xodimi guvohnomasiga ega bo'lgan ellikka yaqin soliq inspektorlari kriminal politsiya bo'limlarida turib ishlashadi. Bundan tashqari, soliq inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq sudda ko'rilayotgan ish bilan tanishish huquqiga ega. Ularni, ayniqsa, moliyaviy firibgarlik va suiiste'mol qilish, siyosiy partiyalarni yashirin moliyalashtirish va qora jamg'armalar faoliyatiga oid ma'lumotlar qiziqtiradi. Nihoyat, soliq idorasi aslida rasman rad etsa-da, ammo xususiy detektivlarning xizmatlaridan foydalanadi. Ko'pincha soliq inspektorlari tomonidan tashkil etilgan "nazorat tarmoqlari"ga oddiy soliq to'lovchilar tushadilar. Oddiy xodimning fayli taxminan 8 yilda bir marta, notariusniki – 28 yilda, sartaroshniki – 40 yilda, shifokorniki – 50 yilda va dehqonniki – 134 yilda bir marta tekshiriladi. Imtiyozli shaxslar bilan esa maxsus xizmat – Soliq holatini tekshirish milliy direksiyasi shug'ullanadi (economie.gouv.fr, n.d.).

Xususan, u yirik siyosiy amaldorlarni nazorat qiladi. Korxonalar uchun ham ma'lum mezonlar bor – kichik firmalar (tovar aylanmasi 5 million yevrogacha) nisbatan tez – har uch oyda tekshiriladi. Yirik transmilliy kompaniyalar bilan taxminan 250 ga yaqin kishi ishlaydigan Milliy xalqaro tekshirish direksiyasi shug'ullanadi. Bunday korxonalar har 6-7 yilda to'liq tekshiriladi. Bundan tashqari, tekshirish davomiyligi bir yilga yetishi mumkin.

Soliq organlari daromad solig'ining 5 foizidan oshmaydigan huquqbuzarliklarni jinoyat deb hisoblamaydi. Biroq, bu qarz foizlar bilan to'lanishi talab etiladi – oyiga 0,75%. Deklaratsiyani soliq organlariga kechiktirish uchun soliq summasining 10 foizi miqdorida jarima solinadi. Kechiktirilgan topshirish muddati bir oydan ortiq bo'lsa, jarima 40% ni tashkil qiladi, lekin deklaratsiya topshirilmasa va ikkinchi marta eslatilgandan so'ng, jarima miqdori yana ikki baravar ko'payadi. Nazariy jihatdan, hatto 3 yilgacha haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilish kabi jazo ham tahdid solishi mumkin. Soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlash bir yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va muddati o'tgan muddat uchun barcha

summa va foizlarni qaytarishdan tashqari 5 dan 250 ming yevrogacha jarimaga tortilishga olib keladi (economie.gouv.fr, n.d.). To'lovni to'lamagan shaxsni davlatga soliqni to'liq to'lashga majbur qilish uchun bank hisoblarini, ish haqini, shuningdek, mulkni garovga olish kabi usullar mavjud. Shu bilan birga, qonun hujjatlarida soliq to'lovchiga soliq organlarining qarori ustidan shikoyat qilish, shu jumladan sudga murojaat qilish imkoniyati nazarda tutilgan.

Umuman olganda, Fransiya soliq tizimida soliq huquqbuzarliklarini oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy va murakkab chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu chora-tadbirlarning ijrosi qattiq nazorat qilinadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Fransiyaning soliqdan bo'yin tovlashga qarshi kurash tizimi kompleks va ko'p qirrali yondashuvga asoslangan. Uning asosiy ustunliklari qat'iy qonunchilik bazasi, raqamlashtirishning keng qo'llanilishi, ma'lumotlar almashinuvi va riskka asoslangan nazorat mexanizmlaridir. Soliq politsiyasining tashkil etilishi, xalqaro hamkorlikning kuchayishi va yuqori darajadagi jazolar soliq qonunbuzarliklariga qarshi kurashda yuqori samaradorlikni ta'minlashga yordam bermoqda.

Fransiya tajribasini tahlil qilish, ayniqsa, soliq tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlash va budjet barqarorligini mustahkamlashga intilayotgan davlatlar uchun katta ahamiyatga ega. Raqamlashtirishni chuqurlashtirish, xalqaro ma'lumotlar almashinuvini kengaytirish va soliq to'lovchilar uchun ochiqlik hamda maslahat tizimini takomillashtirish orqali mamlakatlar o'zlarining soliq nazorati tizimlarini sezilarli darajada yaxshilashlari mumkin.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

- Analyse De L'exécution Budgétaire (2024). Recettes Fiscales De L'état. Avril 2025. [economie.gouv.fr](https://www.economie.gouv.fr) (n.d.) Fransiya Iqtisodiyot, moliya hamda sanoat va raqamli suverenitet vazirligining rasmiy sayti: <https://www.economie.gouv.fr/>
- Kuzieva N.R. (2003) Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. O'quv qo'llanma. T.
- Kuzieva N.R. (2005) Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. O'quv qo'llanma. T
- Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. (2011) Chet mamlakatlar soliq tizimi. (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 508 bet.
- Бутузова, А.С. (2019) Анализ ответственности за совершение налоговых правонарушений в Россия, Франции, Германии / А.С. Бутузова, С.П. Королева [Электронный ресурс] // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. — 2019. — № 5-4. — С. 165–167. — Режим доступа: cyberleninka.ru/article/n/analiz-otvetstvennostiza-sovershenie-nalogovyh-pravonarusheniy-v-rossiya-frantsii-germanii (дата обращения: 27.02.2020).
- Дрожжина, И.А. (n.d.) Правовой анализ французского опыта борьбы с уклонением от уплаты налоговых платежей / И.А. Дрожжина [Электронный ресурс] // Известия орловского государственного технического университета. серия: социально-экономические и гуманитарные науки. — Издательство: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Государственный университет — учебно-научно-производственный комплекс» (Орел) — Режим доступа: www.elibrary.ru/item.asp?id=13020793
- Дютин А. Н.(2018) Европейский опыт противодействия уклонению от уплаты налогов / А. Н. Дютин. // Молодой ученый. — № 39 (225). — С. 113-116 // Молодой ученый: сайт. — URL: <https://moluch.ru/archive/225/52806/> (murojaat sanasi: 29.05.2025).
- Зотиков Н.З. (2020) Кандидат экономических наук, доцент Зотиков Н.З. Налоговая система Франции, ее особенности // Вестник Евразийской науки, 6, <https://esj.today/PDF/17ECVN620.pdf> (доступ свободный)
- Кузнецов Л.Д. (2017) Характерные черты налоговой системы Франции // Инновации и инвестиции. № 12. С. 96–100
- Семенова, Н.Ф. (2010) Уголовная ответственность за налоговые преступления по законодательству зарубежных стран: компаративистский аспект / Н.Ф. Семенова [Электронный ресурс] // Власть. № 5. — С. 162–165. — Режим доступа: www.elibrary.ru/item.asp?id=14314189